ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 06.01.2026 · Accepted: 20.03.2026 · Published: 31.03.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/s42ws235

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Go‘zal umr ko‘zgusi “San’at mening quyoshimdir” kitobining yaratilish tarixi

(The Creation History of "San’at mening quyoshimdir": A Reflection of a Beautiful Life)

Mamlakat Ulasheva

Department of Maqom Vocal Performance,
The Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: mamlakatulasheva@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada taniqli olim, adib, tarjimon Urfon Otajon qalamiga mansub Saodat Qobulova hayoti va ijodiga bag‘ishlangan asarning qay tarzda dunyoga kelgani va bu asarning O‘zbek musiqa san’atida tutgan o‘rni haqida batafsil so‘z yuritiladi. Buyuk san’atkor, betakror ovoz sohibasi, ulug‘ ustoz Saodat Qobulovaning umr yo‘lidagi ahamiyatli voqeyliklar kitobxonlarga xalqona tilda taqdim etiladi. Ushbu maqola taniqli musiqashunos, professor, ulug‘ ustoz Ravshan Yusupovich Yunusovning xotiralariga asoslanadi.

Asar muallifi Urfon Otajonning bu asarni yaratishiga turtki bo‘lgan omillar, yozuvchining asar qaxramonining ruhiy kechinmalari, ijodiy yo‘li hamda hayot zarvaraqlarini aziz kitobxonga taqdim etishdagi maxorati haqida so‘z boradi. Asarda Saodat Qobulova ijodidan o‘rin egallagan eng sara asarlarning ijro uslublari, yaratilish tarixi, xonanda hayotida qoldirgan muhimliklar haqida bilib olishimiz mumkin.

Xonandaning o‘zbek milliy mumtoz musiqasiga, teatr va opera san’atiga qo‘shgan hissasi, ustoz-shogirdlik an’anasi, vokal ijrochilik uslubi va pedagogik faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada xalq musiqa san’ati va og‘zaki an’analardan foydalangan holda uning ijodiy faoliyati orqali yosh avlodni tarbiyalash imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: san’at, monografiya, xonandalik san’ati, ustoz-shogird, opera, maqom, g‘azal, uslub.

Abstract

This article will discuss in detail how the work dedicated to the life and work of Saodat Qobulova, written by the famous scientist, writer, and translator Urfon Otajon, came into being and its place in Uzbek musical art. Significant events in the life of the great artist, owner of a unique voice, and great teacher Saodat Qobulova will be presented to readers in the vernacular. This article is based on the memoirs of the famous musicologist, professor, and great teacher Ravshan Yusupovich Yunusov.

The author of the work, Urfon Otajon, will talk about the factors that motivated the creation of this work, the writer's skill in presenting the spiritual experiences, creative path, and life lessons of the heroine of the work to the dear reader. In the work, we can learn about the performance styles of the most exquisite works from Saodat Qobulova's work, the history of creation, and the important things that the singer left in her life.

The singer's contribution to Uzbek national classical music, theater and opera, the tradition of mentorship, vocal performance style and pedagogical activity are analyzed. The article also discusses the possibilities of educating the younger generation through her creative work using folk music and oral traditions.

Keywords: art, monograph, vocal art, master–apprentice tradition, opera, maqom, ghazal, style.

Аннотация

В этой статье подробно рассказывается о том, как создавалось произведение, посвященное жизни и творчеству Саодат Кобуловой, написанное известным ученым, писателем и переводчиком Урфоном Отаджоном, и о его месте в узбекском музыкальном искусстве. Значимые события из жизни великой артистки, обладательницы уникального голоса и великого педагога Саодат Кобуловой будут представлены читателям на родном языке. Статья основана на мемуарах известного музыковеда, профессора и великого педагога Равшана Юсуповича Юнусова.

Автор произведения, Урфон Отаджон, расскажет о факторах, мотивировавших создание этого произведения, о мастерстве автора в представлении читателю духовных переживаний, творческого пути и жизненных уроков героини произведения. В произведении можно узнать о стилях исполнения самых изысканных произведений из творчества Саодат Кобуловой, об истории его создания и о важных вещах, которые певица оставила в своей жизни.

В статье анализируется вклад певицы в узбекскую национальную классическую музыку, театр и оперу, традиция наставничества, стиль вокального исполнения и педагогическая деятельность. Также рассматриваются возможности воспитания молодого поколения посредством её творческой работы с использованием народной музыки и устных традиций.

Ключевые слова: искусство, монография, вокальное искусство, традиция «мастер-ученик», опера, маком, газель, стиль.

O‘zbek musiqa san’ati namoyandalari orasida ijro uslubi, ijod yo‘lining sermazmunligi hamda o‘z ijod maktabiga asos solgan xonandalar juda ham ko‘p.

O‘tgan asr katta iste’dod egalarini kashf etdi. Yunus Rajabiy, To‘xtasin Jalilov, Halima Nosirova, Tamaraxonim, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Muxtor Ashrafiy, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova… bu ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin. Yuqorida nomlari zikr etilgan san’atkorlarning barchasi o‘zbek musiqa san’atida o‘z uslubi, yangi musiqiy yo‘nalishi bilan nom qoldirgan katta musiqiy meros egalari, bastakor-qo‘shiqchilardir.

Mana shunday ustozlar, san’at fidoyilari kashf etgan iqtidor egalaridan biri Saodat Qobulovadir. U 1925-yil 15-dekabrda Marg‘ilonning san’atga oshufta kishilar xonadonida tug‘ildi. O‘zbek xonandalik san’atida yangi davr yaratib, Yevropa xonandalik xususiyatlarini milliy ashulachilik yo‘li bilan uyg‘unlashtirgan Saodat Qobulova 15 yoshidan to umrining oxirigacha musiqa, ashula olamida yashadi. San’atdagi ilk chiqishlari Marg‘ilon jamoa va davlat xo‘jaliklari teatridan boshlanib, Muqimiy nomidagi o‘zbek musiqali drama va komediya teatrida davom etadi. Sobir Abdullaning “Tohir va Zuhra” musiqali dramasida Qamar, Komil Yashinning “Nurxon”ida Nurxon rollarini konsert ijrochiligida shu teatr sahnasida kuylaydi. Oradan muayyan vaqt o‘tib, yosh xonanda uchun yaxshi imkoniyat tug‘iladi. 1947–1948 yillari o‘zbekistonlik bir guruh yoshlar bilan Moskvadagi o‘zbek opera studiyasida ijro mahoratining yangi tomonlarini, opera sirlarini o‘rganadi [2].

Noyob ovoz, yuqori iste’dod sohibi va mahoratli ijrochi Saodat Qobulova ijrosidagi o‘zbek va jahon opera san’ati na’munalari, milliy mumtoz shoh asarlari va xalq qo‘shiqlari odamlar qalbiga chuqur o‘rnashib, xalqimizning ma’naviy boyligiga aylandi. Saodat Qobulovaning ijodiy faoliyati o‘zbek san’atida yangi yo‘l ochdi. Ustozning milliy ashulachilikdagi faoliyati o‘zbek musiqasida yangi maktab bo‘lib sahifa ochdi. O‘zbek milliy musiqa madaniyati rivojini o‘ziga xos ovoz sohibasi Saodat Qobulovasiz tasavvur qilish qiyin. Saodat Qobulova yarim asrdan ziyod davr mobaynida o‘zbek ashulachilik san’atining turli sohalarida o‘zining ko‘p

qirrali, ya’ni ijrochilik, pedagogik, ijtimoiy-musiqiy, ma’rifiy faoliyati bilan xizmat qilib keldi [6].

Saodat Qobulova shaxsiyati juda ham ko‘p bora o‘rganilgan, tadqiq etilgan va ommaga taqdim etilgan.

Bu maqola esa yozuvchi, dramaturg, tarjimon Urfon Otajonning adabiy merosida olmos kabi ahamiyatli Saodat Qobulova ijodiga bag‘ishlangan “San’at mening quyoshimdir” kitobining yaratilishi haqidadir. Ushbu maqola musiqashunos olim, professor, san’atshunoslik fanlarining etuk bilimdoni Ravshanbek Yusupovich Yunusovning xotiralariga asoslanadi.

Ravshan Yunusovning xotirlashicha, Saodat Qobulova bilan juda yaqin hamfikr, do‘st bo‘lishgan. Ular juda ko‘p suhbatdosh bo‘lishgan. Olim Saodat Qobulovaning eng sodiq muxlislaridan bo‘lgan [3].

R. Yunusovning Saodat Qobulova bilan ko‘rishgan oxirgi paytlarni eslaydi: “So‘nggi davrlarni eslaganimda, Saodat opa qo‘liga dutorni olib, 10 dan ortiq xalq ashulalari, bastakorlardan To‘xtasin Jalilov, Orifxon Xotamov ijodlariga oid ashula namunalar hamda xalq termalarini qayta tiklaganlar. Maqom ansambliga borib, Abduhoshim Ismoilov boshchiligidagi sozandalar bilan o‘sha ashulalarni “Oltin fond” uchun qayta yozgan edi. Saodat Qobulova umrining har bir daqiqasida san’at uchun yashadi va har bir soniyani juda qadrlar edi. Saodat opa ijrosidagi har bir ashula eng to‘g‘ri yo‘lda ijro etilganiga shak-shubha yo‘q [1].

“O‘sha ashulalar yozilgan kassetasini menga sovg‘a qilgan edilar, tinglasam maza qilaman”. Keksaligidagi pishgan, har tomonlama yetuk ovozining shirasi menga juda qattiq ta’sir etadi. Ularning keksaligidagi ovozlari uncha-muncha yosh ijrochilarda uchramas edi.

Saodat Qobulova bilan oilaviy do‘st bo‘lganmiz. Onam muxlislari edilar. Bir kun uyimizga taklif etdim. Onam yoshliklaridan dutor chalib, xalq ashula va termalaridan ijro qilib yurardilar. “Siz bilan uchrashish orzulari, kelsangiz xursand bo‘ladilar”, dedim.

Saodat Qobulova hamda yana bir dutorchi hamkasbimni uyimizga olib keldim. Bu uchrashuv haqiqiy bayram bo‘lib ketgan edi. Dam onam dutor chalib, doira chertib o‘zining xalq-termalaridan ijro qilib bersalar, dam Saodat opa qo‘shiq kuylar edilar. Bu haqiqiy san’atsevarlar davrasi bo‘lgan edi.

Bir payt eshik taqilladi. Qarasam qo‘shnim, ajoyib suhbatdosh, ham filolog, dramaturg ham yozuvchi Urfon Otajon ekanlar. Biz u kishi bilan juda yaqin do‘st va hamfikr-suxbatdosh bo‘lganmiz.

Urfon aka: “Ravshanjon, Eshikni tirqishidan Saodat Qobulovani ko‘rib qoldim, men ham suhbatlarizni kirib eshitib o‘tirsam bo‘ladimi?” – dedilar. Men taklif qildim, ular kirdilar.

Tor doiradagi suhbatimiz shu darajada go‘zal tusga kirdiki, o‘sha laxzalar umrimning eng Shirin va go‘zal paytlari bo‘lgan. Suhbat orasida Urfon aka Saodat opaga: “Saodat opa, siz haqingizda kitob yozsam maylimi”- deb so‘rab qoldilar. Saodat opa menga qaradilar, men savol nazarlarini darrov tushundim va ularga: “Rozi bo‘ling, Urfon aka juda go‘zal qalam egasi, siz haqingizda ajoyib durdona asar yozishlariga ishonchim komil,va Urfon akaning shiddatli ijodkor ekanligi hammaga ma’lum, siz asar yaralishini ko‘p kutmaysiz, bu juda tez bo‘ladi”-dedim. Saodat Qobulova Urfon Otajon ular haqida asar yozishlariga rozi bo‘ldilar [4].

O‘sha uchrashuvdan keyin Urfon akani faqat shu maqsad sari yurganliklarini ko‘rdim. Doim o‘y bilan, faqat shu niyat bilan yurardilar. Ular tez-tez ko‘rishib, suhbatlashib, ma’lumot almashinib turishdi. Goh Saodat opaning uylarida, goh konservatoriyada, goh Alisher Navoiy teatrida uchrashar edilar.

Urfon Otajon bir suhbatimizda aytib qoldilar: “Saodat opa bilan uylarida muzeyga mo‘ljallangan xonalarida ko‘rishar edik, Uchrashuvlar, xalqaro festival, dekadalar, simpoziumlar, uchrashuvlar haqida uzlari yozib yurar ekanlar. Menga barcha ma’lumotlarni berdilar.Saodat Qobulovaning o‘zlari bir etuk kitob ekanlar”-dedi.

Bu kitobning yaralishi Urfon Otajonga qisman engil bo‘lgan bo‘lsa ham, kelgusi avlod uchun juda qimmat va nodir adabiyot bo‘lib qoldi. Yozuvchi bu kitob bilan san’atga bo‘lgan ruhiy yondashuvni oshib berdi.

Urfon Otajonning “San’at mening quyoshimdir” kitobi O‘zbek san’ati, ayniqsa maqom, an’anaviy xonandalik, ijodiy tarbiya va san’at pedagogikasi bo‘yicha yozilgan eng muhim manbalardan biri sifatida qadrlanadi.

Muallif san’atkorning uzoq yillik tajribasi, ustozlardan olgan saboqlari, mashg‘ulot jarayonida qo‘llagan usullarini sodda va samimiy uslubda yoritadi. San’atga bo‘lgan ruhiy yondashuvni ochib beradi [1]. Kitobning nomi ham shuni anglatadi: san’at muallif uchun faqat kasb emas, balki ichki dunyo va ma’naviy hayotning quyoshidir.

Ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qiladi. Asarda: ustoz-shogird an’anasi, san’atga sadoqat, xalq mumtoz merosiga hurmat kabi qadriyatlar alohida ta’kidlanadi. Shu bois kitob nafaqat san’atkorlar, balki ma’naviyat bilan shug‘ullanuvchi har qanday kitobxon uchun ham foydalidir.

Urfon Otajonning “San’at mening quyoshimdir” – kitobi buyuk san’atkor Saodat Qobulovaning nafaqat ijodiy yo‘lini aks ettirgan asar, balki o‘zbek an’anaviy musiqasi, maqomchilik va xonandalik san’ati bo‘yicha mukammal metodik-nazariy manbadir. U ijodkorni yoritadigan, unga yo‘l ko‘rsatadigan “quyosh” sifatida san’atning mohiyatini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Otajon U. San’at mening quyoshimdir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
2. Shokirov O‘. O‘zbek san’atkorlari. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2010.
3. Nizomiddinova Ch. “Taqdirimdan minnatdorman…” (Saodat Qobulova) // Jahon adabiyoti. – 2015. – № 12.
4. Samadov R. Saodat Qobulova ijodida milliy ijrochilikning tutgan o‘rni // Oriental Art and Culture. Scientific Methodical Journal. – 2026. – T. 7. – № 2.
5. Rasulov U. O‘zbek mumtoz musiqasi merosining milliy va umumbashariy qadriyatlari // France scientific review of the problems and prospects of modern science and education. – 2025. – T. 1. – № 3. – S. 8–13.

6. Karimova M. Shashmaqom cholg‘u qismlarining ijrochiligi // Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – № 3. – S. 1002–1008.

References

1. Otajon, U. *San’at mening quyoshimdir* [Art Is My Sun]. Tashkent: Yangi asr avlodi, 2006. (in Uzbek)
2. Shokirov, O. *O‘zbek san’atkorlari* [Uzbek Artists]. Tashkent: G‘afur G‘ulom Publishing House, 2010. (in Uzbek)
3. Nizomiddinova, Ch. “Taqdirimdan minnatdorman…” (Saodat Qobulova) [“I Am Grateful for My Fate…” (Saodat Qobulova)]. *Jahon adabiyoti*, no. 12, 2015. (in Uzbek)
4. Samadov, R. Saodat Qobulova ijodida milliy ijrochilikning tutgan o‘rni [The Role of National Performance in the Works of Saodat Qobulova]. *Oriental Art and Culture. Scientific Methodical Journal* 7, no. 2 (2026).
5. Rasulov, U. O‘zbek mumtoz musiqasi merosining milliy va umumbashariy qadriyatlari [National and Universal Values of Uzbek Classical Music Heritage]. *France Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education* 1, no. 3 (2025): 8–13.
6. Karimova, M. Shashmaqom cholg‘u qismlarining ijrochiligi [Performance of Instrumental Parts of Shashmaqom]. *Modern Science and Research* 4, no. 3 (2025): 1002–1008.